

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILAR IJODKORLIGINI OSHIRISHDA TEKNOLOGIYA TA'LIMI AHAMIYATI.

Kambarov Nodirjon Sattarovich

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi p.f.f.dok (PhD),
dotsent v.b. Gmail:nodirjonkambarov2@gmail Tel: +998939447261*

Mingboyeva Raximaxon Ortig'ali qizi

*University of Business and Science nodavlat oliy ta'limmuassasasi talabasi. Gmail:
raximaxonmingboyeva@gmail.com Tel: +998905815680*

Annotatsiya: maqolada texnologiya darslarida o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalar elementlari bo'lgan ta'limning interfaol metodlaridan foydalanish xususida mulohaza yuritilgan. Noan'anaviy dars shakli asosida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi borasida ma'lumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, dars, interfaol pedagogik texnologiyalar, ta'lim mazmuni, ijodiy qobiliyat, taqdimot, bilish, anglash, baholash.

ЗНАЧЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ПОВЫШЕНИИ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.

Аннотация: В статье рассматривается использование интерактивных методов обучения, которые являются элементами педагогической технологии в построении технологии творческих способностей студентов. Он предоставляет информацию об образовательных технологиях, чтобы помочь студентам развить свои способности на основе нетрадиционного урока.

Ключевые слова: технологии, уроки, интерактивные педагогические технологии, образовательный контент, творческие способности, презентация, знания, понимание, оценка.

THE IMPORTANCE OF TECHNOLOGY EDUCATION IN INCREASING THE CREATIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Annotasion: The article discusses the use of interactive teaching methods, which are elements of pedagogical technology in building technology of students' creative abilities. It provides educational technology information to help students develop their abilities based on a non-traditional lesson.



Key words: *technologies, lessons, interactive pedagogical technologies, educational content, creativity, presentation, knowledge, understanding, assessment.*

KIRISH

Hozirgi kunda ijodkor, tashabbuskor, hamda intellektual yoshlarni, tarbiyalash, uni kamol toptirish eng muhim, dolzarb masalalardan biridir. Shunday ekan, zamonaviy ta'limda ro'y berayotgan chuqur islohatlar va boshqa o'zgarishlar jarayoni kun tartibiga shaxsning ijodiy salohiyatini shakllantirishga yordam beradigan ijodkorlik, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish muammosini ustuvor vazifa sifatida ilgari surmoqda. Yangi O'zbekiston kelajagi uchun muhim orin tutuvchi, hamma davrlarda ham tarixni harakatlantiruvchi kuch bo'lmish yoshlarni mukammal bilimga ega, mustaqil fikrlash va bunyodkorlik qobiliyati muhim o'rin tutishi kerakligini anglagan holda jamiyatda faoliyatning turli sohalarida band bo'lgan mutaxassis yoshlarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali maqsadga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Darslar samaradorligi erishish va darslarda turli shakl va metodlardan foydalanish borasida mutaxassislardan Sanaqulov X. Xodiyeva, D. Satbayeva, RMavlonova, N.Abdullaev, A. Madvaliyev, H Orifjanof, K.K. Sultonova, R.A.Mamurova, O.Goroxova, R. Ogluzdina, R.Hasanov, M.Tilavov, H.Egamovlar o'rganganlar hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar [4-5-6-7]. Ular texnologiya darslarini giziqarli va samararali tashkil etisda turli shakl va metodlardan foydalanish yo'llari borasida tadqiqot olib borib, o'z tavsiyalarini berdilar. Xorij olimlaridan I.A. Vorobey, I.Perevertin, L.Maltsevo, N. Shumulleyevich N.M. Shumulleyevich, N.B.Xolezova, N.A. Kurochkina kabi pedagog olimlar ham ilmiy izlanishlar olib bordilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda texnologiya ta'limini ahamiyati juda muhim ekanligi borasida fikrlar yuritilgan. O'quvchilar ijodkorligini oshirishning turli omillari hamda o'quvchi-yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalashga qaratilgan vazifalar muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Dars samadorigi, ijodkorlikni oshirish bo'yicha yondashuvlar o'rganildi.

OLINGAN NATIJALAR, TAHLILLAR VA QARASHLAR

Turli axborotlar oqimi ortgan, yangiliklar hayotimizga shitob bilan kirib kelayotgan davrda mustaqil tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan, yangiliklarni o'rganishga doim tayyor bo'lgan, hamkorlikdan cho'chimaydigan, muloqotga erkin kirisha oladigan, ijodkor shaxsni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi bo'lishi kerak va bu borada ta'limda yangi ilg'or texnologiyalarning qo'llanishga yo'l ochilishiga erishish



yo'lidagi maqbul qadamdir. Hozirgi kunda yangi texnologiya elementi bo'lgan interfaol usullardan keng foydalanilmoqda.

Shunday ekan, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashda kasb tanlash izchilligini takomillashtirish bilan bir qatorda mehnat ta'limi va tarbiyasi jarayonida ijodkorlik fazilatlarini shakllantirishga e'tiborni qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning ijodiy faoliyatlari, malakalari, estetik didi, badiiy adabiyotlarni idrok etish, yangi usullarni yaratish bilan birgalikda uni o'rganish ko'proq ko'zga tashlanadi va shular orqali o'quvchilarda mehnatda ijodkorlik malakalari hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Bularsiz o'quvchilar ijodkorligini tasavvur qilish qiyin. Ijodkorlik fazilatini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning ijobiy va salbiy, sodda va murakkab bo'lgan xulq-atvorlarini ko'rish mumkin, shuning uchun ham o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchidagi ijodkorlik fazilatini chuqur anglab, ularni kundalik hayotda amal qilishlariga erishishda ko'maklashishi lozim.

Har bir o'quvchida ijodkorlikning o'ziga xos fazilatlarining shakllanish darajasini nazorat qilish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki buning natijasida o'quvchilarda tashabbuskorlik, halollik va intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi. Ma'lumki, har bir pedagogik davr o'zining texnologiyalar avlodini yaratgan. Ta'lim texnologiyalarining birinchi avlodi an'anaviy metodikalardan, ikkinchi va uchinchi esa modul-blok hamda yaxlit blok o'qitish tizimi, to'rtinchi avlod integral texnologiyalardan iborat bo'lgan.

Noan'anaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalarning tatbiq etilishi bugungi kunga kelib ta'lim taraqqiyoti jarayonini tubdan o'zgartirib yubordi.

Bu rivojlanayotgan, o'quvchi-yoshga yo'naltirilgan o'qitish, tabaqalashtirish, ijtimoiylashtirishning ko'plab muammolarini hal qilish, o'quvchilarning o'ziga xos ta'lim istiqbolini shakllantirish imkonini beradi. Barcha texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining anglanganligi, samaradorlik, harakatchanlik, mantiqiylik, yaxlitlik, ochiqlik, loyihalashtirilganlik; o'quvchilarning o'quv jarayonidagi mustaqil faoliyati ta'lim vaqtining 60-90%ini tashkil qilishi; shaxslashtirish kabi umumiy belgilarga xosdir. Ayniqsa, texnologiya darslari orqali o'quvchilarda ijodkorlikni shakllantirish va bolaning mehnatga bo'lgan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

Ibn Sino, Farobiy, Naqshbandiy, Kaykovus, Navoiy, Termiziy kabi allomalimiz o'z asarlarida mehnat tarbiyasini ulug'lashgan. Hozirgi kundagi olimlarimizdan R.Mavlonova, X.Egamov, I.Choriyev, N.Shodiyev, M.Magdiyev, Sh.Sharipov, N.Muslimov va X.Sanaqulovlar ham o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlari, darslik va uslubiy qo'llanmalarida bu boradagi o'z fikrlarini bayon etganlar.

Texnologiya ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari,



vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlari, ongli ravishda kasb tanlashga hamda jamiyat va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlar va tafakkur tarzini rivojlantirishga qaratilgan.

Texnologiya ta'limi darslaridagi ta'lim-tarbiyaviy vazifalar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi texnologik ta'limining umumiy vazifalaridan kelib chiqib, quyidagi mashg'ulot turlari jarayonida amalga oshiriladi:

- umumiy va badiiy mehnat;
- umumiy texnologiya asoslari.

Shunda texnologiya o'quvchilarga ham mehnatni ham, aqlini kuchaytiradi. Ular izlanishlaniraga qarab turib qiziqishini yo'qotmasidan ijodkorligini oshirishi zarur bo'ladi. Buning uchun ular ko'proq izlanishlari zarur bo'ladi. Boshlang'ich ta'limning Boshlang'ich sinf o'quvchilari qog'oz va kartonni chiziqlar bo'yicha qirqish, bukish hamda turli narsalar yasash kabi jarayonlarni bajarishni o'rganadilar. Ayni paytda ular detallarni turli usullarda birlashtirish va mustahkamlashni mashq qiladilar. Gazlama bilan ishlash bolalarning natural ipak va jun tolali materiallar, to'qimachilik sanoati mahsulotlarini bilishi, namuna, rasm, chizma va berilgan o'lchamlar bo'yicha andoza bichib olish bilan ilk bor tanishtirishni o'z ichiga oladi.

Texnik modellash mashg'ulotlarida namuna, rasm va chizmalar, berilgan o'lcham, konstruktor naborining detallari yoki turli materiallarni qo'llab og'zaki tasvirlash bo'yicha o'yinchoqlar, modellar va maketlar tayyorlash nazarda tutiladi.

Qishloq xo'jalik mehnati bo'yicha mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilari kuzda o'quv tajriba maydonchasida o'stirilgan o'simliklarning urug'larini to'playdilar, o'tgan yil davomida maydonchada qilgan ishlariga yakun yasaydilar, maktab ko'rgazmasi uchun eksponatlarni ajratadilar. Shundan so'ng o'quvchilar o'quv tajriba maydonchasidagi o'zlariga tegishli bo'lgan yerni qishga tayyorlaydilar, ya'ni uni o'simlik qoldiqlaridan tozalaydilar, tabiiy va mineral o'g'itlar soladilar, yerni chopadilar.

Bu ishlar jarayonida ular shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qiladilar. Yana bir tarafdin ular ko'proq izlanadi.

Eng avvalo texnologiya fanini o'zlashtirishga psixologik tayyorlash turli psixologik jarayonlarni rivojlantirish va takomillashtirishni nazarda tutadi. Bular: sezib anglash, psixomotor, emostional-idrok, diqqat, xotira, tafakkur va shu kabi proseslardir. Boshqacha qilib aytganda, ular mehnatning psixologik komponentlari deyiladi.

Texnologik operatsiyalarni o'rgatishda bolaning imkoniyatlarini nazarda tutib, hissiy bilish jarayonini takomillashtirish zarur.



Ma'lumki, ijodkorlikni oshirish, mehnat faoliyati, texnologiya fani uchun ham turli sezgilar yig'indisining (ko'rish, eshitish, his etish, ta'm bilish, teri, muskul harakati) namoyon bo'lishi xarakterlidir. Texnologik operatsiyalarni bajarishda shaxsning qiziqish, qobiliyat, temperament kabi individual psixologik xususiyatlari shakllanadi. Ijodiy ishlarni bajarishga psixologik va axloqiy tayyorlash jarayoni murakkab va uzoq davom etuvchi jarayondir. Ijodiy ishlar malakalari ko'p marotaba takrorlanadigan mashqlar natijasida hosil bo'lishi sababli har bir mashq jarayoniga o'quvchini aqliy yondashtirish, buning uchun esa ish-harakati izchilligini tizimlilik sur'atida tushuntirib berish talab etiladi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda quyidagi ish turlari bo'yicha ish olib boorish darkor:

1. Qog'oz va karton bilan ishlash.
2. Turli materiallar bilan ishlash.
3. Gazlama (tikish va bichish) bilan ishlash.
4. Texnikaga modellashtirish. (qurish-yasash)
5. Qishloq xo'jaligi mehnati.

Mehnat ta'limi jarayonida hosil qilingan bilimlar, malakalar va ko'nikmalar maqsadsiz emas, balki insonning asosiy qobiliyati – mehnatga bo'lgan qobiliyatini rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

O'quvchilarni ijodkorligini oshirishning yana bir omili bu turli tabiiy va tashlandiq materiallar bilan ishlashdir.

Turli tabiiy materiallar. Turli materiallar bilan ishlash eng avval qaysi narsadan nimalar yasash mumkinligini, avvaldan izlanib, rejalab, tabiat qo'ynidan yig'ib olingan, so'ng reja asosida turli o'yinchoqlar, ertaklar asosida ko'rsatmali ko'rinishlarga boy personajlar, qofiyalar, turli rangli manzaralar yasaladi.

Texnologiya darsida turli tabiiy materiallar – daraxt, novdalar, qamish, somon, poxol, g'oz chanoqlari, yong'oq, qum, loy, toshlar hamda tuxum po'stloqlar, xandon pista va danak po'choqlari, mevalar urug'lari kabilardir.

Tashlandiq narsalar. Tashlandiq narsalardan ham kerakli buyumlar, estetik zavq ola biladigan, ayniqsa o'z ko'rinishi, mazmuni bilan bolalarni tarbiyalash mumkin bo'lgan narsalar yasalishi ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Tashlandiq narsalarga;

- g'altak va iplari;
- turli chiqitlar;
- bo'shagan plastmassa idishlar;
- simlar;
- bo'shagan qytilar.



Tashlab yuborish mumkin bo'lgan bu narsalar bolalarni ijodkorlikka, yaratuvchanlikka, tejamkorlikka o'rgatadi.

Qog'oz va karton bilan ishlash. Qog'oz va karton bilan ishlashda avvalambor ularning turlari o'rganiladi. Qog'oz va kartonning sanoat va turmushda qo'llanilishi haqida suhbat uyushtiriladi. Uning xususiyati haqida bolada tasavvur hosil bo'lishi darkor. Qog'ozdan buklash ishi:

1-sinf o'quvchilari qog'ozdan xatcho'p, bosh kiyimi, bayroqcha, archa bezaklari va turli o'yinchoqlar yasashni o'rganadi.

2-sinfda turli hajmdagi buyumlar, qutichalar, ona tili va matematika fanlari uchun ulashib beradigan kartochkalar, qalamdon va hokazo.

3-sinf daftar, kitob soladigan xaltachalar, andaza asosida geometrik figuralar applekatsiya ishlari, uy shakli.

4-sinfda harakatli o'ynchoqlar, turli hayvonlarning shakllari, ertak illyustratsiyalari, qog'ozni tejash.

Gazlama bilan ishlash. Boshlang'ich sinflarning texnologiya bo'limida dastur, qog'oz va karton bilan ishlash bo'limiga va gazlama bilan ishlash bo'limiga teng soat ajratilgan. Gazmol bilan ishlaganda mehnat madaniyati, o'z ishini rejalashtirish hamda tashkil etish ko'nikmasi rivojlanadi va takomillashadi. Bolalarning didlari ham jiddiy o'sadi va takomillashadi. Gazmol, ip va boshqa materiallarni bir-biriga moslab tanlash, o'quvchilarni ranglarni birikishi, gazmol va ipning rangi bir-biriga muvofiq kelishiga e'tibor berishga o'rgatadi.



LEGO Education konstruksiya to'plamlarining keng assortimenti barcha yoshdagi bolalarga maktabgacha yoshdagi bolalardan tortib o'smirlargacha robototexnika bilan shug'ullanish imkonini beradi.



Aksariyat Lego to'plamlari aloqa, fantaziya, nutq, muhandislik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mashina va mexanizmlarni yaratish, bolalar nostandart yechimlarni izlaydilar, bu ularning mavhum fikrlashiga ijobiy ta'sir qiladi. Ushbu to'plamlar o'quvchilarni real hayot mexanizmlari tuzilishi bilan tanishtiradi va jamoalarda ishlash, bolalar bir-biri bilan muloqot qilishni, birgalikda qaror qabul qilishni o'rganadilar. Bundan ko'rinadiki LEGO Education konstruksiya to'plamlari ham o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.


Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tashabbuskorlik, ijodkorlik kabi fazilatlarni shakllantirish, o'quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o'z-o'zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida topish, o'z-o'ziga talabchan bo'lish, maqsadga intilish kabi xislatlarning namoyon bo'lishi ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. O'quvchilarning noan'anaviy darslarda mustaqil fikrlashiga ustuvor e'tibor qaratish o'quvchining o'zini-o'zi tarbiyalashiga, o'z shaxsida ezgu ma'naviy sifatlarni shakllantirishiga omil bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi o'qituvchilar, kattalar va darsliklar ko'magida ijodkorligini oshiradi hamda tarbiyalaydi. Texnologiya darslarda mustaqil fikrlashga o'rgatish, umuman, pedagogika, xususan, adabiy ta'limning bosh maqsadi bo'lmish ma'naviy, ijodkor barkamol insonni tarbiyalashga asos bo'ladi. O'z fikri, o'z qarashiga ega bo'lish komil shaxslikning muhim belgisi hisoblanadi. Darslarda o'quvchi shaxsini bosh qadriyatga aylantirish, ma'naviyatni shakllantirish ustuvorligini ta'minlash, bilim olish va tarbiyaga ega bo'lish uchun bolaning o'zini harakatga undash, unga kashf etish lazzatini uqdirish, darslarda pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishiga erishish kabi tamoyillar ustuvorligiga erishish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'ldoshev J.G', Hasanov S.A. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma. – T.: «Iqtisodmoliya», 2009.
2. Кулиева Ш.Х. Подготовка учителей профессионального образования на основе системного подхода // Science and world. № 5 (45) , 2017. -С.70-72.





3. Tolipov O.Q., Usmonboyev S.A.. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – T: «Fan va texnologiya», 2006.

4. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

5. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.;TDPU. 2007-yil

6. Sanaqilov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mchnat ta'limi 3-sinf darsligi.T.: "Sharq" . 2016-yil.

7. K.K. Sultonova "Badiy mehnat" Toshkent " O'qituvchi" 1993-yil.

8. Tilavova M. Boshlang'ich sinf mehnat darslarini tashkil etish texnologiyasi. T., 2008.
Yil

